

AQSH-XITOIY GEOIQTISODIY RAQOBATINING GLOBAL SAVDOGA TA'SIRI

Kamola Tulibayeva Bahrom qizi

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishi
magistranti Email: @tulibayevakamola@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada AQSh va Xitoy o'rtasidagi geoiqtisodiy raqobatning global savdoga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Geoiqtisodiyot tushunchasi, savdo urushi, iqtisodiy davlat boshqaruvi (economic statecraft), hamda texnologik-sanoat siyosati kabi nazariy yondashuvlar asosida ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy siyosatning shakllanish jarayonlari ko'rib chiqiladi. Global qiymat zanjirlari (Global Value Chains, GVC) doirasida bu raqobatning transmilliy kompaniyalar, uchinchi mamlakatlar va xalqaro savdo tizimiga qanday ta'sir qilishi tahlil etiladi. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, xalqaro tashkilotlar statistik ma'lumotlari va qiyosiy tahlil usullari qo'llanilgan. Natijalar AQSh-Xitoy iqtisodiy raqobati nafaqat ikki tomonlama savdoga, balki global ishlab chiqarish tizimi va xalqaro iqtisodiy barqarorlikka ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: AQSh, Xitoy, geoiqtisodiyot, global savdo, savdo urushi, global qiymat zanjiri (GVC), texnologik raqobat, iqtisodiy davlat boshqaruvi, sanoat siyosati.

Аннотация: В этой статье будет проведен научный анализ влияния геоэкономической конкуренции между США и Китаем на мировую торговлю. Рассматриваются процессы формирования экономической политики между двумя государствами на основе таких теоретических подходов, как концепция геоэкономики, торговая война, экономическое государственное управление (Economic Statecraft), а также технико-промышленная политика. В рамках глобальных цепочек создания стоимости (Global value Chains, GVC) анализируется, как эта конкуренция влияет на транснациональные корпорации, третьи страны и международную торговую систему. В исследовании использовались анализ литературы, статистические данные международных организаций и методы сравнительного анализа. Результаты показывают, что экономическая конкуренция между США и Китаем оказывает значительное влияние не только на двустороннюю торговлю, но и на глобальную производственную систему и международную экономическую стабильность.

Ключевые слова: США, Китай, геоэкономика, глобальная торговля, торговая война, глобальная цепочка создания стоимости (GVC), технологическая конкуренция, экономическое государственное управление, промышленная политика.

Abstract: This article will provide a scientific analysis of the impact of geo-economic competition between the United States and China on global trade. The article examines the processes of economic policy formation between the two states based on

such theoretical approaches as the concept of geoeconomics, trade war, Economic Statecraft, as well as technical and industrial policy. Global value Chains (GVC) analyzes how this competition affects multinational corporations, third countries, and the international trading system. The study used literature analysis, statistical data from international organizations, and comparative analysis methods. The results show that economic competition between the United States and China has a significant impact not only on bilateral trade, but also on the global production system and international economic stability.

Keywords: *USA, China, geo-economics, global trade, trade war, global value chain (GVC), technological competition, economic governance, industrial policy.*

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda xalqaro munosabatlarda geoiqtisodiyot tushunchasi jahon siyosati va iqtisodiyotining eng muhim tahlil kategoriyalaridan biriga aylandi. Geoiqtisodiyot keng ma'noda davlatlarning o'zining iqtisodiy kuchi, savdo aloqalari, moliyaviy vositalari va texnologik ustunliklari orqali global siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish strategiyasidir.

An'anaviy geopolitikadan farqli ravishda, geoiqtisodiyot harbiy kuch emas, balki iqtisodiy salohiyat, eksport-import oqimlari, sarmoya va innovatsion texnologiyalarni siyosiy qurol sifatida ishlatishni nazarda tutadi. Shu sababdan ham geoiqtisodiyot bugungi globallashuv sharoitida davlatlararo raqobatning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ushbu jarayonning markazida, albatta, AQSh va Xitoy o'rtasidagi geoiqtisodiy raqobat turadi. AQSh uzoq vaqt mobaynida xalqaro iqtisodiy tizimning yetakchi aktori bo'lib kelgan bo'lsa, Xitoy XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab jadal iqtisodiy o'sishi, ishlab chiqarish hajmi va tashqi savdo salohiyati bilan global maydonda yangi markazga aylandi.

Xitoyning "Bitta kamar - bitta yo'l" tashabbusi, yuqori texnologiyalarga qaratilgan "Made in China 2025" dasturi va keng ko'lamli sarmoya loyihalari AQShning xalqaro iqtisodiy ustunligiga bevosita chaqiriq bo'ldi. AQSh esa bunga javoban proteksionistik choralar, tarif siyosati, texnologik nazoratlar va sanksiyalar orqali javob berdi.

Natijada ikki davlat o'rtasidagi savdo va sanoat siyosatidagi raqobat global savdo oqimlari, ta'minot zanjirlari va xalqaro iqtisodiy institutlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Maqolaning maqsadi: AQSh-Xitoy geoiqtisodiy raqobatining global savdoga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilish, bu jarayonning asosiy mexanizmlari, xavf va imkoniyatlarini aniqlash hamda kelgusidagi istiqbollarini baholashdan iborat. Shu bilan birga, maqola global savdo tizimida yuzaga kelayotgan "de-globalizatsiya", ta'minot zanjirlarini qayta shakllantirish, proteksionizm kuchayishi va yangi iqtisodiy bloklashuv jarayonlari kabi tendensiyalarni o'rganishga qaratiladi.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishga intiladi:

1. Geoiqtisodiy raqobatning nazariy asoslari va ularning AQSh-Xitoy raqobatidagi namoyon bo'lish shakllari qanday?
2. AQSh-Xitoy savdo va sanoat siyosati o'zaro raqobat orqali global savdo oqimlariga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?
3. Global savdoning kelajakdagi rivojlanishida ushbu raqobatning xavflari va imkoniyatlari nimalardan iborat?
4. Taraqqiy etayotgan davlatlar va Global Janub mamlakatlari ushbu geoiqtisodiy raqobatdan qanday ta'sir ko'rmoqda?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

AQSh-Xitoy geoiqtisodiy raqobati bo'yicha ilmiy adabiyotlar turli yondashuvlar va konseptual qarashlarni taklif qiladi. Asosan uchta asosiy yo'nalishni ajratish mumkin:

- (1) savdo urushlari va iqtisodiy sanksiyalar,
 - (2) global qiymat zanjirlari va ta'minot xavfsizligi,
 - (3) texnologik raqobat va innovatsion siyosat.
1. Savdo urushlari va iqtisodiy sanksiyalar.

AQSh va Xitoy o'rtasidagi savdo mojarolari 2018-yilda boshlangan bojxona tariflari urushi bilan keskinlashdi. Iqtisodchi Baldwin (2019) geoiqtisodiy choralarni xalqaro savdoning siyosiyashtirilgan shakli sifatida baholab, ularning xalqaro tizimdagi kuch muvozanatiga bevosita ta'sirini ta'kidlaydi [1]. Bown va Irwin (2019) esa tarif siyosati G'arb iqtisodiyotlari uchun qisqa muddatda zararli bo'lsa-da, uzoq muddatda ta'minot zanjirlarining qayta yo'naltirilishiga olib kelishini ko'rsatadi [2]. Shu nuqtai nazardan, AQShning Xitoyga nisbatan tariflari va investitsiya cheklovlari global savdo oqimlarini qayta shakllantirdi.

2. Global qiymat zanjirlari va ta'minot xavfsizligi.

Global qiymat zanjirlari (Global Value Chains, GVC) nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar Xitoyning jahon ishlab chiqarish markaziga aylanishini tushuntiradi. Gereffi (2018) GVC tushunchasi orqali Xitoyning ishlab chiqarishdagi markaziy rolini, AQSh esa innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatli sohalarda ustunligini ko'rsatadi [3]. Recent OECD hisobotlari (2021) esa raqobat natijasida "reshoring" va "friend-shoring" tendensiyalarining kuchayishini, ya'ni ishlab chiqarishni Xitoydan boshqa davlatlarga ko'chirish jarayonlarini tahlil qilgan [4].

3. Texnologik raqobat va innovatsion siyosat.

Geoiqtisodiy raqobatning eng dolzarb yo'nalishi — texnologiyalar, xususan, yarimo'tkazgichlar, sun'iy intellekt va 5G tizimlari ustidan nazoratdir. Segal (2019) AQSh va Xitoyi "raqobatbardosh texnologik bloklar" sifatida ta'riflab, innovatsion siyosatning strategik ahamiyatini ko'rsatadi [5]. J. Allison (2020) esa bu jarayonni "yangi sovuq urush"ning iqtisodiy-texnologik bosqichi sifatida talqin qiladi [6].

TADDIQOT METODOLOGIYASI:

Mazkur tadqiqotda AQSh-Xitoy geoiqtisodiy raqobatining global savdoga ta'siri kompleks yondashuv asosida o'rganiladi. Birinchi bosqichda ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirilib, geoiqtisodiyot, savdo urushi, texnologik siyosat va global qiymat zanjirlari haqidagi nazariy qarashlar umumlashtiriladi. Keyingi bosqichda statistik ma'lumotlar — Jahon Savdo Tashkiloti (WTO), Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon Banki va UNCTAD bazalaridan olingan global savdo oqimlari, investitsiya hajmi va tarif siyosati ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

TAHLIL VA TADQIQOT NATIJALARI

Geoiqtisodiyot nazariyasi zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlarning iqtisodiy resurslari va siyosiy qurollarini uyg'unlashtirib, global jarayonlarga ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Ushbu atama dastlab Edward Luttwak (1990) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u geoiqtisodiyotni "davlatlar o'rtasidagi strategik raqobatda iqtisodiy vositalardan foydalanish" sifatida ta'riflagan [7]. Shundan buyon geoiqtisodiyot xalqaro siyosatshunoslik va iqtisodiy tadqiqotlarda keng qo'llanila boshladi.

Geoiqtisodiy raqobatni tushuntirishda muhim nazariy yondashuvlardan biri economic statecraft konsepsiyasidir. David A. Baldwin (1985) bu tushunchani "davlatning o'z manfaatlariga erishish uchun iqtisodiy vositalardan siyosiy bosim yoki rag'bat sifatida foydalanishi" deb izohlaydi [8]. Bu nazariya ayniqsa AQSh-Xitoy o'rtasidagi savdo va texnologik siyosatdagi qarama-qarshilikni tahlil qilishda dolzarbdir.

Masalan, AQShning Xitoyga nisbatan qo'llagan yuqori tariflari yoki eksport nazorati mexanizmlari iqtisodiy kuchni siyosiy maqsadlarga yo'naltirishning klassik namunasidir.

Geoiqtisodiy raqobatning eng yaqqol ko'rinishlaridan biri savdo urushi (trade war) hisoblanadi. 2018-yilda AQShning Xitoydan import qilinadigan mahsulotlarga qo'shimcha tariflar joriy etishi, Xitoyning esa javob choralarini qo'llashi global savdo oqimlarini sezilarli darajada o'zgartirdi.

Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda AQSh-Xitoy savdo hajmi 15 foizga qisqargan va bu jarayon global iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatgan [9].

Shuningdek, bu jarayon proteksionizmning kuchayishiga va transmilliy korporatsiyalarning ta'minot zanjirlarini qayta ko'rib chiqishga olib keldi.

Raqobatning boshqa muhim qirrasini texnologik va davlat tomonidan boshqariladigan sanoat siyosati (tech/statist-industrial policy) tashkil etadi. Xitoy hukumati tomonidan qabul qilingan "Made in China 2025" dasturi yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarida milliy salohiyatni oshirish va tashqi raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan [10]. AQSh esa bunga javoban semikonduktorlar, 5G texnologiyalari va sun'iy intellekt kabi sohalarda eksport cheklovlari va sarmoya nazoratini kuchaytirdi.

Block va Keller (2011) davlatning sanoat siyosatidagi faol rolini “innovatsion tizimlarni qo'llab-quvvatlovchi strategik aralashuv” sifatida izohlaydi [11].

Bu nuqtai nazardan, AQSh va Xitoy texnologik ustunlikni milliy xavfsizlik bilan bevosita bog'lamoqda.

Global savdo tizimini tushunishda esa global value chains (GVC) tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Gereffi va Fernandez-Stark (2016) GVCni “mahsulot va xizmat ishlab chiqarish jarayonining turli mamlakatlarga taqsimlanishi va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar majmuasi” sifatida ta'riflaydi [12].

Xitoy dunyoning “fabrikasi” sifatida GVCning ishlab chiqarish segmentida yetakchi o'rin tutsa, AQSh yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan dizayn, marketing va intellektual mulk sohalarida ustunlik qiladi.

Shu sababdan ham AQSh-Xitoy raqobati global qiymat zanjirlarining qayta shakllanishiga olib kelmoqda. Masalan, kompaniyalar “China+1” strategiyasi orqali ishlab chiqarishni Vietnam, Meksika yoki Hindistonga ko'chirishga intilmoqda [13].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baldwin R. The Globotics Upheaval: Globalization, Robotics, and the Future of Work. — Oxford: Oxford University Press, 2019. — 304 p.
2. Bown C. P., Irwin D. A. The Trump Trade War: A Timeline. — Washington, DC: Peterson Institute for International Economics, 2019. — 58 p.
3. Gereffi G. Global Value Chains and Development: Redefining the Contours of 21st Century Capitalism. — Cambridge: Cambridge University Press, 2018. — 440 p.
4. OECD. Global Value Chains: Efficiency and Risks in the Post-COVID World. — Paris: OECD Publishing, 2021. — 112 p.
5. Segal A. The Hacked World Order: How Nations Fight, Trade, Maneuver, and Manipulate in the Digital Age. — New York: PublicAffairs, 2019. — 384 p.
6. Allison J. Destined for War: Can America and China Escape Thucydides's Trap? — Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2020. — 400 p.
7. Luttwak E. From Geopolitics to Geo-Economics: Logic of Conflict, Grammar of Commerce // The National Interest. — 1990. — № 20. — P. 17-23.
8. Baldwin D. A. Economic Statecraft. — Princeton: Princeton University Press, 1985. — 388 p.
9. World Trade Organization. World Trade Report 2019: The Future of Services Trade. — Geneva: WTO Publications, 2019. — 180 p.
10. State Council of the People's Republic of China. Made in China 2025 Plan. — Beijing, 2015. — 40 p.
11. Block F., Keller M. State of Innovation: The U.S. Government's Role in Technology Development. — Boulder: Paradigm Publishers, 2011. — 216 p.

12. Gereffi G., Fernandez-Stark K. Global Value Chain Analysis: A Primer. — Durham: Duke University, Center on Globalization, Governance & Competitiveness, 2016. — 50 p.

13. Luo S., Kang M., Di M. Global Supply Chain Reallocation and Shift under Triple Crises: A U.S.-China Perspective // arXiv preprint. — 2025. — arXiv:2508.06828.